

TURKISTON MILLIY MATBUOTI RIVOJIDA MUNAVVAR QORIABDURASHIDXONOV ASARLARINING O'RNI

Qallibekova Dinora

Qoraqolpoq Davlat universiteti Jurnalistika fakulteti 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6985192>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Munavvar qori Abdurashidxonovning hayot yo'li, o'zbek jadid adabiyotidagi o'rni, milliy matbuot sohasidagi fidokorona xizmatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, milliy matbuot, "usuli jadid".

МЕСТО ПРОИЗВЕДЕНИЙ МУНАВВАРА КОРИАБДУРАШИДХАНОВА В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ ТУРКЕСТАНА

Аннотация. В данной статье жизнь Мунаввара кори Абдурашидханова кстати, его место в современной узбекской литературе, самоотверженный в области национальной прессы услуги выделены.

Ключевые слова: джадидизм, национальная пресса, «джадидский метод».

THE PLACE OF THE WORKS OF MUNAVVAR KORIABDURASHIDKHANOV IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL JOURNALISM IN TURKESTAN

Abstract. In this article the of Munavvar qori Abdurashidkxonov way, its place in Uzbek modern literature selfless in field of national press services are highlighted.

Keywords: jadidism, national press, "method jadid".

KIRISH

Ma'lumki XIX asrning oxirlari va XX asrning birinchi choragi Turkiston tarixida muhim siljishlar ro'y bergan davrdir. Bu davr, avvallo, mahalliy xalq ongidagi uyg'onish, milliy o'z o'zini anglash jaryonlari bilan xarakterlanadi. Jadidchilik, avvaliga, madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashga chaqirishgan. Munavvar qori Abdurashidxonov o'zbek jadidchiligining peshqadam vakillaridan biri. U adib, shoir, yozuvchi va pedagog. Munavvar qori asarlarining mazmun-mohiyatini, axloqiy-ma'naviy, tarbiyaviy jihatlarini ochib berish va adibning hayot yo'lini o'rganish va ochilmagan qirralarini ochib berish, adibning o'sha davr yoshlarini ilm marifatli qilish yo'lida tinimsiz harakat qilgan va o'z hisobidan darsliklar chiqargani, 251 maktablar ochgani va bugungi kunda O'zbekistondagi eng mashhur va birinchi oliygoh bo'lgan O'zbekiston Milliy universitetining tamal toshini ham Munavvar qori Abdurashidxonov qo'ygan. Bundan asosiy maqsadi turkistonlik yoshlarni ilmi qilish va Turkistonda ham oliygochlarni ko'paytirish bo'lgan. "Munavvar qori xalqimiz boshiga tushgan chorizm va bolshevizmning yirtqich mustabidlik yillarida "Men – sendamen: sen – mendasen" hikmatiga muvofiq elimiz, millatimiz qalbiga ma'rifat va ozodlik, erk va hurlik urug'ini sohib, el vijdonini uyg'otgan, vijdon erkinligini taqdim etgan, millat g'amini yegan – millatpanoh, yurt hayotining sertashvish yo'llarini munavvar qilgan yo'lchi yulduz va shu yo'lda shahid ketgan inson edi".

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Munavvar Qori tavallud topgan davr mustamlakachilik siyosati avjiga chiqqan bir payt edi. Abdurashidxon Sotiboldixon o'g'li Munavvar Qori 1878 yilda Toshkent shahrining SHayxontohur daha Darxon mahallasida tug'ildi. Uning otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o'g'li

mudarris bo'lib, Toshkentda Eshonquli dodxoh madrasasida dars bergan. Onasi Xosiyat otin Toshkentlik pedagog Xonxoja Shoraximxo'jayevning qizi bo'lgan. Munavvar Qori otasidan 7 yoshligida yetim qolgan. Unga dastlab tarbiya va ta'limni onasi Xosiyat otin bergan. U xat savodni ham, avvalo, onasidan o'rgangan. Ayni paytda yirik maktabdorlardan hisoblangan Usmon domla ismli kishi qo'lida o'qidi. Yana bilimlarini oshira borib, Toshkentda joylashgan Yunusxon madrasasida tahsil oladi, Munavvar Qori yoshligidan diniy ilmlarni puxta o'rgangan Buxoroda olgan sabog'i uning bilimlarini yanada mustahkamladi. Buxorodan tezda qaytgach, Toshkent Darxon masjidida imomlik bilan shug'ullana boshladi. Imomlik qilayotgan paytda ham u Turkiston xalqini savodsiz holda yashayotganligini chuqur anglar edi. Bu davrda Ismoil Gaspiralinig g'oyalari Toshkentda ham tarqalgan edi. Munavvar Qori, birinchidan, Turkiston xalqining mustamlakachilikdagi hayotidan ta'sirlangan bo'lsa, ikkinchidan «Tarjimon» gazetasi orqali kirib kelgan g'oyalardan o'ziga quvvat olgan.

«Toshkent ziyolilari» orasida jadidchilik ishiga alohida hissa qo'shib, uning yo'lboshchilaridan biriga aylandi. Amerikalik olim, o'zbek ma'rifat va madaniyatining targ'ibotchilaridan biri Edvard Ollvort o'zining "Zamonaviy o'zbeklar" kitobida Munavvar Qorining Turkiyada ta'lim olganligini ma'lum qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Munavvar Qori Abdurashidxonov ham 1904 yilda Toshkentning Zeki shahrida "usuli jadid" deb nomlangan maktab ochgan. Munavvar Qori yangi usuldagi maktabini dastlab o'z hovlisida ochgan, keyinchalik boshqa joylarda ochish uchun keng harakatni boshlab yuborgan, Bu yillarda uning yaqin qarindoshlari ko'makdosh bo'ldilar. Bu to'g'rida M. Muhammadjonov o'zining "Turmush urinishlari" kitobida keng ma'lumotlar beradi: "Shayx Xonavand daxur daxalik Mirza Dadaxujaboyning mehmonxonasida maktab ochib, bir-ikki yildan beri Abdusami Qori degan bir kishi bilan bola o'qitib turmoqda bo'lganini aytdilar. Borib ko'rdim. Bolalarning o'qishlarini sinf- sinflarida yurib ko'rib chiqdim. Hozirda 4-sinf boshlang'ich ibtidoiy maktab bo'lib, yaxshigina tartiblik: parta, qora taxtalar, yer yuzi bo'laklarining qisqacha ham butun xaritalari bor ekan. Bu yangi tartiblik maktablarning Toshkent shahrida bo'lib ketishiga birinchi sabab Munavvar Qori bo'lib, barchasining progromini shul tuzub bergan»⁶⁵.

Ushbu keltirilgan fikrdan ko'p narsalarni anglab olish mumkin. Demak, Munavvar Qorining dastlab ochgan maktabi (1900-1901-yillar) 4 sinfdan iborat bo'lib, turli zamonaviy fanlar ham o'qitilgan. U yangi usuldagi maktabda o'qitishdan maqsadi, birinchidan, xalqni savodli qilish bo'lsa, ikkinchidan, xalqni mustaqillik uchun kurashga hozirlaydigan ma'rifatxona ochish edi. Munavvar Qori maktab ta'limi yaxshi yo'lga qo'yilmagan o'lkada ziyo tarqatishning turli yo'llarini qidirdi. Shu maqsadda «usuli jadid» maktablari uchun darsliklar yozdi. Munavvar Qori bu darsliklari orqali komil farzandlarni voyaga yetkazishning asosiy sharti ta'lim va tarbiya birligi deb bildi. Uning "Adibi avval" va "Adib us-soniy" darsliklarida ta'lim-tarbiyaning muhim tomonlari o'z aksini topgan.

Munavvar Qorining maktab va maorif sohasidagi faoliyati, pedagogik qarashlari pedagogikamiz tarixidagi yorqin sahifani tashkil etadi. 1916-yili Turkustonda mardikorlikka olish voqeasi munosabati bilan Kattaxo'ja Boboxojaevning xonadonida katta yig'in bo'lib o'tadi. Bu yig'inda Toshkent ziyolilari va boylari ishtirok etadi. O'sha yig'inda Munavvar qori birinchi bo'lib nutq so'zlaydi va o'z nutqida: "O'zbek ziyoli va bilimli bolalarini Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muhtojmiz. Bolalar o'qib o'rganib, ilm olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar"⁶⁶, - degan so'zlar bilan uzoq nutq so'zlad. Adibning so'zlarini yig'ilganlar

ma'qulladilar. Munavvar qori uyg'onish davrida faqatgina maktablar ochish bilan kifoyalanmay milliy matbuot sohasida ham jadal ishlarni amalga oshirgan. U 1906-yili "Taraqqiy" gazetasida muxbir bo'lib ishlaydi, bu gazeta yopilgach o'zi shu yili "Xurshid" gazetasini tashkil qiladi. 1913 yili "Turon" uyushmasining muassislaridan biri bo'ldi. 1914-1916- yillarda "Turkiston kutubxonasi", "Turon kutubxonasi", "Najot", "Kengash" gazetalarida muassis va bosh muharrir bo'ldi. 1917-yilda esa "Turkiston viloyatining gazetasi" ga muharrir etib tayinlandi. Munavvar qori XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy harakatchilikning, milliy ozodlik harakatining eng e'tiborli namoyandalaridan biri bo'lib tanildi.

Munavvar qori "Taraqqiy" gazetasining birinchi sonida Munavvar qori Ibn Abdurashidxon ismi bilan «Bizning jaholat jahli murakkab» nomli ma'rifatparvarlik ruhida maqolasini e'lon qildi. Bu maqola Munavvar qorining ma'rifatparvarlik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Taraqqiyparvarning «Bizning jaholat» maqolasi «Taraqqiy» gazetasining birinchi sonida bosilib, uning dasturini belgilaydi. Maqola quyidagi tarzda boshlanadi: «Har millatning maktab va madrasasi bo'lgani kabi bizning ham maktab va madrasalarimiz garchi benizom va beusul o'lsa ham yo'q demak darajada oz emasdur. Har millat avlodini tarbiya va ta'lim ilmida ko'rsatgan g'ayrat va himmati kabi bizlarda ham o'z mas'um avlodlarni jaholat va g'aflat zulmatida qolmog'iga hech bir rizolari bo'lmay qo'llaridan kelgancha ta'lim va tarbiya avlodda qusurlik ko'rsatguvchi zotlar mavjuddurlar»⁶⁷.

Muallif maqolada ikki davrni solishtirish orqali ayni paytdagi ahvolni ko'rsatib beradi. Birinchidan «Darsga nima uchun kelganini bilmay, ilm va maorifga aslo rag'bat qilmay, jonidan shirin bolalarini ko'chama—ko'cha kezdirub, bechora mas'umni aziz umrini jaholat otashini bildiruvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur»⁶⁸ deb ilmga rag'bat qilmayotgan insonlarning qiyofasini ko'rsatsa, ikkinchidan ilm va ma'rifatni to'g'ri anglaydigan qanday bo'lmasin farzandlarni kelajak taraqqiyoti uchun ilmli qilish kerak, degan insonlarning qiyofasini tasvirlaydi. Munavvar qori matbuot timsolida xalqning ongini, uning dunyoqarashini o'stirishini, fikrlash doirasini kengaytiruvchi va uni ijtimoiy-siyosiy jihatdan o'stirib, millat sifatida shakllantiruvchi omilni ko'rdi.

MUHOKAMA

Munavvar qori juda ko'p tillarni ham tushunish doirasida bilgan. Jumladan, arab, fors, rus va turk tilini yaxshi bilganligi uchun Bog'chasaroy, Qozon, Orenburg, Turkiya, Eron, Afg'oniston va Hindistondan keluvchi "Tarjumon", "Vaqf", "Sho'ro", "Yulduz", "Siroti mustaqim", "Xablul matn", "Ulfat" va boshqa matbuot nashrlarini olib turgan. Farid Vajdi, Muhammad Iqbol, Rizouddin Faxriddinov, Abdurashid Ibrohim, Abdulhaq Hamid, Ziyo Ko'kalp, Fuad Ko'pruluzoda, Nomiq Kamol, Jamoliddin Kamoliy kabi sharq ziyolilarining ilg'or fikrlari bilan tanishib uni ijtimoiy hayotga yangicha nazar tashlashga majbur etadigan siymo bo'lgan. Rusiya matbuotidagi turli fikrlarning o'zaro bahslari va ularning dasturlarini kuzatish, xususan chor hukumatining maxfiy tashkiloti- oxranka bilan bo'ladigan olishuvlar, ko'pgina o'zbek boylarining xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan savdo-sotiq hamda bank munosabatlari, mustamlakachilarning Turkistonni arzon xomashyo omboriga aylantirish siyosati, mahalliy aholining madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy tanazuli sabablarini tadqiq etish, Rossiya orqali G'arbdan kirib kelayotgan savdo-sanoat inqilobi sirlari, Afg'oniston va Hindistonda ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borilayotgan kurashlar jarayonlarini o'rganish Munavvar qorini dunyoga va o'lka ahvolini sokin kuzatuvchilikdan qizg'in faoliyatga undadi: avval ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, jamoatchilik keyin istiqlolchilik salohiyatini shakllantirdi.

XULOSA

Munavvar qori matbuotga elni, millatni g'aflar uyqusidan uyg'otuvchi buyuk kuch, madaniyat va ma'rifatga chorlovchi buyuk vosita, haqiqat jarchisi deb qaradi. Buni uning asarlari orqali ham ko'rishimiz mumkin. Vatan va xalq dardini vujudida tuyib yashagan Munavvar qori Abdurashidxonov o'zbek adiblari orasida xalqimizning qoloqlik sabablarini adabiyotda birinchilardan bo'lib isbotlagan siymolardandir. U o'z maqola va hikoyalarda xalqimizning bid'atga botganligi, ayrim din arboblarning tor masalalar bilan o'ralashib qolgani va uning oqibatini mutafakkirona ko'rsatib berdi.

REFERENCES

1. Munavvar qori Abdurashidxonov "Men sendamen" –T.: "INFO CAPITAL" 2019.
2. Ollvort E. Zamonaviy o'zbeklar: XIV asrdan hozirgacha madaniy tarix/ Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.- B.
3. Sirojiddin Ahmad. Millatpanoh. Munavvar qori Abdurashidxonov. Men sendamen... so'z boshi va muallifi va nashrga tayyorlovchi S. Axmad. - T.: INFO CAPITAL GROUP, 2019.
4. Sirojiddin Ahmad. Millatpanoh. Munavvar qori Abdurashidxonov. Men sendamen... so'z boshi va muallifi va nashrga tayyorlovchi S. Axmad. - T.: INFO CAPITAL GROUP, 2019. – B.5
5. Ollvort E. Zamonaviy o'zbeklar: XIV asrdan hozirgacha madaniy tarix/ Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.,2007.- B. 261-268.
6. Munavvar qori Abdurashidxonov "Men sendamen".- T.: "INFO CAPITAL" 2019.
7. Sirojiddin Ahmad. Millatpanoh. Munavvar qori Abdurashidxonov. Men sendamen... so'z boshi va muallifi va nashrga tayyorlovchi S. Axmad. - T.: INFO CAPITAL GROUP,2019.
8. Abdurashidxonov M.Bizning jaholat jahli murakkab/Men sendamen... so'z boshi va muallifi va nashrga tayyorlovchi S. Axmad. - T.: INFO CAPITAL GROUP, 2019. – B . 192-196 68Ko'rsatilgan asar. –B. 195
9. Рустамов Б. Н. ХОДИМЛАР БИЛИМИ ВА МАЛАКАСИНИ БАҲОЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ //Лучший инноватор в области науки. – 2022. – Т. №1. – С. 592-595.
10. Rustamov B. N. MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARINI TAHLIL QILISH VA TAQQOSLASH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №4. – С. 25-29.
11. Rustamov B. N. BigData: katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish tamoyillari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №4. – С. 178-182.
12. Вахтийор Р. ORACLE МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИДА МАЪЛУМОТЛАРНИ ҚИДИРИШНИ ТЕЗЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
13. Рустамов Б. Н. МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИ ЖАДВАЛЛАРИДА КЎП СОНДАГИ МАЪЛУМОТЛАРНИ ҚИДИРИШНИ ТЕЗЛАШТИРИШНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 313-318.